



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
kimyo fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 8-sinflar uchun
II chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf kimyo fanidan II chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Kimyoviy bog‘lanishlar. Kimyoviy elementlarning nisbiy elektromanfiyligi	1		
2.	Kimyoviy bog‘lanish turlari. Qutbli va qutbsiz kovalent bog‘lanish. Donor-akseptor bog‘lanish	1		
3.	Ionli bog‘lanish	1		
4.	Kristall panjaralar 2-laboratoriya ishi . Turli kimyoviy bog‘lanishli moddalarning (kaliy xlorid, oltingugurt, yod) kristall panjaralari namunalarini tayyorlash	1		
5.	4-Nazorat ishi	1		
6.	Elementlarning oksidlanish darajasi	1		
7.	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari	1		
8.	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamalarini tuzish	1		
9.	Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga oid mashqlar bajarish	1		
10.	5-Nazorat ishi Loyiha ishi taqdimoti: Tuproq, suvning ifloslanishida ion bog‘lanishli birikmalarni aniqlab ulardan tozalash g‘oyasini ishlab chiqish	1		
11.	Metallmaslarning umumiy xossalari	1		
12.	Galogenlarning davriy sistemadagi o‘rni. Atom tuzilishi	1		
13.	6-Nazorat ishi	1		
14.	Xlor, Vodorod xlorid	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kimyoviy bog‘lanishlar. Kimyoviy elementlarning nisbiy elektromanfiyligi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko‘plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o‘quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o‘rgatish, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirish

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

badiiy va san’at asarlari bo‘lgan me’moriy obidalarni tiklashda kimyoviy birikmalardan foydalanilganligi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

kimyoviy elementlar va ularning birikmalari xossalriga oid masala va mashqlarni ishlashda hisoblashlarni bajara olish, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ma’lumki, kimyoviy elementlarning atomlari bir-birlariga birikib, juda ko‘p oddiy va murakkab moddalarning molekulalarini hosil qiladi. Xo‘sh, bu molekulalarda atomlar bir-birlari bilan qanday kuch hi sobiga bog‘lanib turadi?


Odatdagi sharoitda inert gazlarning atomlari erkin holda mavjud bo‘la oladi (He, Ne, Ar, Kr, Xe, Rn), boshqa har qanday element atomlari erkin holda uzoq vaqt mavjud bo‘la olmaydi, ular bir-biri bilan birikishga harakat qiladi, natijada esa oddiy yoki murakkab moddalarni hosil qiladi. Masalan: oddiy moddalar — H_2 , O_2 , N_2 , Cl_2 ; murakkab moddalar — HCl , H_2O , MgO , $NaCl$, H_2SO_4 va hokazo. Siz bundan avvalgi “Davriy qonun va

elementlar davriy sistemasi. Atom tuzi lishi” bobini diqqat bilan o‘rganish davomida har qanday kimyoviy element o‘zining tashqi ener getik qavatidagi elektronlar sonini tugallangan holatga yetkazishga inti lishini bilib oldingiz. De mak, tashqi energetik qavat sakkizta elektron bilan to‘lganda tugal langan bo‘ladi (birinchi energetik qavat tashqi energetik qavat sanal ganda esa ikkita elektron kifoya). Inert gazlarning tashqi energetik pog‘onasida elektronlar soni tugallangan bo‘ladi. Shuning uchun inert gazlarning molekulalari bir atomli, kimyoviy jihatdan esa inerti dir.

Kimyoviy birikmalar hosil bo‘lishida element atomi yadrosida o‘z garish sodir bo‘lmaydi, asosiy guruh elementlari tashqi energetik qava tidagi elektronlarda va qo‘shimcha guruhcha elementlarida tashqi va tash qidan oldingi energetik qavatda o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir kimyoviy element o‘zining tashqi ener getik qavatidagi elektronlarining yadroga bog‘lanish energ iyasi bilan farq lanadi. Ayrim elementlarning tashqi energetik qavatida gi s-elektronlar yadroga kuchsiz bog‘langanligi tufayli ular kimyoviy reaksiyalarda oson elektron beradi. Bunday elementlar metallardir.

Masalan, natriy atomi ning tashqi energetik qavatida (3s1) 1 ta elektron bo‘ladi va u kimyoviy reaksiyalarda osonlik bilan bitta elektron yo‘qotib ikkinchi qavatni ochib qo‘yadi. Natriyning ikkinchi qavatida esa sakkizta elektron bo‘ladi.



Masalan, metallmaslarda esa tashqi energetik qavatidagi elektronlar yadroga kuchliroq bog‘langanligi sababli kimyoviy reaksiyalarda elektron biriktirib oladi. Ftor atomining tashqi energetik qavatida yettita elektron bo‘ladi va kimyoviy reaksiyalarda elektron qabul qilib olib, tashqi energetik qavatini sakkizta elektron bilan to‘ldiradi.

Buning sababi davrlarda atom radiusining kamayib borishi bo‘lsa, guruhlarda elementning yadro zaryadi ortishi bilan atom radiusi ham ortib borishidir.

Kimyoviy reaksiyalarda elektronlar nisbiy elektromanfiyligi kichik elementdan nisbiy elektromanfiyligi katta element atomi tomon siljiydi yoki butunlay o‘tib ketadi (13-jadvalga qarang). BKM elementlari. Elektromanfiylik, nisbiy elektromanfiylik, NEM (nisbiy elektromanfiylik)ni guruhlarda va davrlarda o‘zgarishi, kimyoviy reaksiyalarda elektronlar ning siljishi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Elektromanfiylik deb nimaga aytiladi?
2. 3- davr elementlari elektromanfiyliklarining o‘zgarishini 13- jadvalga qarab tu shun tirib bering.
3. 13- jadvaldan foydalanib, quyidagi kimyoviy elementlarning belgilarini elektromanfiylik qiymatlarini ortib borish tartibida joylashti ring: aluminiy, uglerod, azot, litiy, kaliy, fosfor, xrom, brom, bariy, kislorod, ftor.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kimyoviy bog‘lanish turlari. Qutbli va qutbsiz kovalent bog‘lanish. Donor-akseptor bog‘lanish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni hamda kimyo fani ko‘plab sohalar rivojlanishida jiddiy ahamiyatga ega ekanligi tushuntirish, ular mavzu asosida kerakli bilim va ko‘nikmalar hosil qilish, mavzuga oid tarqatilgan topshiriqlarni yakka va guruh holatida o‘rganib, o‘zlashtirishga erishish. Suhbat-muhokama orqali o‘quvchilarning ongi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini nazorat qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda qiziquvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish, mustaqillikka va ijodkorlikka o‘rgatish, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirish

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, masalalar yechishdagi qobiliyatni shakllantirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

kimyoviy elementlar va ular birikmalarining nomini faqatgina ona tilida emas, balki xorijiy tillarda bilish. Inson hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan biogen elementlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

kundalik turmushda foydalanadigan mineral o‘g‘itlar, biogen elementlar haqidagi ma’lumotlarni media vositalardan izlab topa olish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Kimyoviy elementlarning nisbiy elektromanfiylik qiymatlariga e‘ti bor ber gan holda kimyoviy birikmalarni quyidagi 3 guruhga bo‘lib olishimiz mumkin:

1. Elektromanfiyliklari bir xil bo‘lgan elementlardan, ya’ni ayni bir xil element atomlaridan hosil bo‘lgan moddalar:

a) H_2 , F_2 , Cl_2 , Br_2 , I_2 , O_2 , N_2 – oddiy moddalar;

b) Li, Na, K, Al, Fe, Cu, Zn – metallar.


2. Elektromanfiyligi bir-biridan biroz farq qiladigan element

atomlaridan hosil bo'lgan moddalar: HCl , HBr , HI , H_2O , H_2S , NH_3 , CH_4 , PCl_3 , PCl_5 ...

3. Elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qiladigan element atomlaridan hosil bo'lgan moddalar:

NaCl , K_2S , BaCl_2 , CaF_2 , Li_2O , MgO ...

Kimyoviy birikmalarni hosil qiluvchi atomlar orasidagi elektronlarning taqsimlanishiga qarab kimyoviy bog'lanishlarni quyidagi 3 turga bo'lish mumkin.



Kovalent bog'lanishlar elektromanfiyligi bir xil yoki bir-biridan juda oz miqdorda farq qiladigan atomlar orasida hosil bo'ladi.

Masa lan, vodorod atomlarining o'zaro birikishi natijasida H_2 — vodorod molekulasining hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz.



Bu holatni quyidagi sodda ko'rinishda yozish ham mumkin:



Vodorodning ikkita atomi orasida hosil bo'lgan bir juft elektron hisobiga atomlar birikib H_2 ni hosil qiladi. Natijada vodorod atomlari barqaror elektron konfiguratsiyaga ega bo'ladi, ya'ni vodorod atomi tashqi energetik qavati tugallangan holatga o'tadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Kimyoviy bog'lanishning qanday asosiy turlari mavjud?
2. Qanday bog'lanishni kovalent bog'lanish deyiladi?
3. Qutbsiz kovalent bog'lanishning hosil bo'lishini misollar bilan tushuntiring.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

**30 listdan iborat kimyo 8-sinf
II chorak konspektini to'loq holda olish uchun
telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**